



## O‘TKIR ICHAK INFEKSIYALARINING FERTIL YOSHDAGI HOMILADOR VA HOMILADOR BO‘LMAGAN AYOLLARDA KLINIK KECHISH XUSUSIYATLARI

**Mustayeva G.B., Tirkashev O.S.**  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

**Annotatsiya.** O‘tkir ichak infeksiyalarining rivojlanishida ichak faoliyatining buzilishiga olib keluvchi turli xil bakteriyalar va viruslar muhim o‘rin tutadi. Bakterial ichak infeksiyalari orasida dizenteriya qo‘zg‘atuvchilari (Shigella), patogen Escherichia coli hamda yersiniyalar keng tarqalgan. Virusli o‘tkir ichak infeksiyalari tarkibida esa rotaviruslar va adenoviruslar asosiy etiologik omillar sifatida qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** bakteriyalar, ichak infeksiyalari, ichak disfunktsiyasi

---

## КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОСТРЫХ КИШЕЧНЫХ ИНФЕКЦИЙ У БЕРЕМЕННЫХ И НЕБЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Мустаева Г.Б., Тиркашев О.С.**  
Самаркандский государственный медицинский университет

**Аннотация.** Острые кишечные инфекции вызываются различными бактериальными и вирусными агентами, приводящими к нарушению функции кишечника. Среди бактериальных возбудителей наиболее часто выявляются шигеллы, патогенные эшерихии и иерсинии. В структуре вирусных кишечных инфекций ведущую роль играют ротавирусы и аденовирусы.

**Ключевые слова:** бактерии, кишечные инфекции, дисфункция.

---

## CLINICAL FEATURES OF ACUTE INTESTINAL INFECTIONS IN PREGNANT AND NON-PREGNANT WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

**Mustaeva G.B., Tirkashev O.S.**  
Samarkand State Medical University

**Annotation.** Acute intestinal infections are caused by various bacterial and viral pathogens leading to intestinal dysfunction. Bacterial agents such as Shigella, pathogenic Escherichia coli, and Yersinia are frequently detected. Among viral pathogens, rotaviruses and adenoviruses play a dominant role.

**Keywords:** bacteria, intestinal infections, dysfunction

**Kirish.** O‘tkir ichak infeksiyalari (O‘II) diareya, intoksikatsiya va ayrim holatlarda suvsizlanish bilan kechib, oshqozon-ichak tizimi motorikasining buzilishi bilan tavsiflanadigan yuqumli kasalliklar guruhini tashkil etadi. Ushbu kasalliklar tarqalishi bo‘yicha o‘tkir respirator virusli infeksiyalardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi [1]. O‘II etiologiyasida turli patogen bakteriyalar, viruslar hamda protozoalar ishtirok etadi. Bakterial ichak infeksiyalari asosan Shigella

spp., Salmonella spp., patogen E. coli shtammlari, Staphylococcus spp., Campylobacter spp., Klebsiella spp. va boshqa mikroorganizmlar bilan bog'liq [3].

So'nggi yillarda O'II ning etiologik tarkibida opportunistik bakteriyalar va viruslarning ustunlik qilishi kuzatilmoqda [4,5]. Noroviruslar va rotaviruslar virusli tabiatli o'tkir ichak infeksiyalarining yetakchi qo'zg'atuvchilari hisoblanadi [3]. Turli yosh guruhlarida O'II etiologiyasida farqlar mavjud bo'lib, keksa yoshdagilar va bolalarda virusli infeksiyalar ulushi 60% gacha yetadi, o'rta yoshli aholi orasida esa bu ko'rsatkich pastroq [3].

Homilador ayollarda o'tkir ichak infeksiyalarining etiologiyasi va klinik kechish xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, ushbu masala bo'yicha ilmiy manbalarda ma'lumotlar cheklangan. Homilador ayollarda shigellyozning klinik xususiyatlari Parosot M. va boshqalar [6], shuningdek Belyaeva T.V. [7] tomonidan o'rganilgan. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, homilador ayollarda 38°C dan yuqori isitma homilador bo'lmagan ayollarga nisbatan kamroq uchraydi. Aksincha, homilador bo'lmagan ayollarda qon va shilliq aralash diareya deyarli ikki baravar ko'p qayd etilgan.

Homilador ayollarda axlatning normallasuvi odatda kasallik boshlanganidan 7-10 kun ichida kuzatilgan bo'lsa, homilador bo'lmagan ayollarda ushbu jarayon 22 kun va undan ortiq davom etgan. Shu bois homilador ayollarda O'II ning klinik-etnologik xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi:** Samarqand viloyati sharoitida reproduktiv yoshdagi homilador va homilador bo'lmagan ayollarda o'tkir ichak infeksiyalarining klinik kechishini baholash.


**Materiallar va usullar.** Tadqiqotga Samarqand viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasida davolangan, O'II tashxisi tasdiqlangan 19 - 40 yosh oralig'idagi 92 nafar ayol kiritildi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh - 62 nafar homilador ayol, nazorat guruhi - 30 nafar homilador bo'lmagan reproduktiv yoshdagi ayol. Barcha bemorlarda najasning umumiy va bakteriologik tekshiruvlari o'tkazildi. Etiologik omillarni aniqlashda avtomatlashtirilgan massa-spektrometriya usulidan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Homilador ayollar asosan kasallikning 2-3 kunlarida tibbiy yordamga murojaat qilgan bo'lsa, homilador bo'lmagan ayollar 2-kuni murojaat qilgan. Guruhlar o'rtasida patogenlarni aniqlash chastotasi bo'yicha sezilarli farq aniqlanmadi. Bakteriologik tasdiqlash homilador ayollarning 88,7% ida, homilador bo'lmaganlarning esa 67,9% ida qayd etildi. Asosiy etiologik agentlar sifatida Shigella sonnei, Salmonella enteritidis va Yersinia enterocolitica aniqlandi. Ikkala guruhda ham kasallikning asosiy sababi bakterial, ayniqsa opportunistik mikroflora bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Bakteriologik jihatdan O'II tashxisini tasdiqlanishi

Klinik shakllar bo'yicha asosiy guruhda gastroenterit 59,7%, enterokolit 29%, gastroenterokolit 6,5% va enterit 4,8% holatlarda uchradi. Nazorat guruhida esa gastroenterit 46,7%, enterokolit 30% va gastroenterokolit 23,3% ni tashkil etdi. Ichak zararlanishi sindromlari bo'yicha statistik farq aniqlanmadi (2-rasm).



2-rasm. Guruhlarda oshqozon ichak tizimini zararlanish holati

Har ikkala guruhda diareya, qusish, isitma va qorin og'rig'i asosiy klinik belgilar sifatida qayd etildi. Homilador ayollarda najas chiqish chastotasi kuniga o'rtacha  $5,7 \pm 3,2$  marta, homilador bo'lmaganlarda esa  $5,3 \pm 3,7$  marta bo'ldi. Diareya davomiyligi homilador ayollarda 6 kun, homilador bo'lmaganlarda 5 kunni tashkil etdi. Isitma homilador bo'lmagan ayollarda ko'proq uchradi.

**Xulosa:** Homiladorlik davrida o'tkir ichak infeksiyalari tez-tez uchrab, og'ir intoksikatsiya va suvsizlanish bilan kechganda homila tushishi hamda uteroplantar qon aylanishining buzilishi xavfni oshiradi. Og'ir somatik kasalliklari va murakkab homiladorlik bilan kechayotgan ayollar alohida nazoratni talab etadi. O'tkir ichak infeksiyalari tug'ruq jarayonini murakkablashtirishi mumkinligi sababli, homila holatini doimiy monitoring qilish va yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Suladze A.G. Kliniko-ekonomicheskii analiz i lecheniye ostrix kishhechnix infeksiy: avtoref. dis. kand. med. nauk: 14.01.09. Rostov-na-Donu, 2009. 89 s.
2. <https://mdp1.ru/o-poliklinike/novosti/ostrye-kishhechnye-infektsii-u-detei-i-ih-profilaktika>
3. O sostoyanii sanitarno-epidemiologicheskogo blagopoluchiya naseleniya v Rossiyskoy Federatsii v 2019 godu. Gosudarstvenniy doklad. Moskva: Federalnaya slujba po nadzoru v sfere zashiti prav potrebiteley i blagopoluchiya cheloveka, 2019. 397 s.
4. Podkolzin A.T., Fenske E.B., Abramicheva N.Yu., Shipulin G.A. i dr. Sezonnost i voznrastnaya struktura zabolevayemosti ostrimi kishhechnimi infeksiyami na territorii RF // Terapevticheskii arxiv. 2007. T. 79, № 11. S. 6-10.
5. Gorelov A.V., Ploskireva A.A. Sovershenstvovaniye diyetoterapii detey pervogo goda jizni // Infektsionniye bolezni. 2003. № 1. S. 64-67.
6. Samsigina G.A. Osobennosti stanovleniya biotsenoza kishhechnika u grudnix detey i kishhechniy disbakterioz // Consilium Medicum. 2003. № 2. S. 30-34.

7. Parosot M., Jolivet A., Boukhari R. et al. Shigellosis and pregnancy in French Guiana: obstetric and neonatal complications // *Am. J. Trop. Med. Hyg.* 2016. Vol. 95. P 26-30.
8. Belyayeva T.V. Ostraya dizenteriya Fleksnera u jenshin reproduktivnogo vozrasta (klinika, epidemiologiya, immunologiya): avtoref. dis. ... d-ra med. nauk: 14.01.09. Sankt-Peterburg, 1995. 353 s.
9. Akusherstvo: natsionalnoye rukovodstvo / pod red. G.M. Savelyevoy, G.T. Suxix, V.N. Serova, V.Ye. Radzinskogo. 2-ye izd., dop. i pe-rerab. Moskva: GEOTAR-Media, 2018. 1088 s.
10. Yarmukhamedova N. A. et al. Functional changes in the cardiovascular system in patients with chronic forms of brucellosis." // *Achievements of science and education.* - 2020.-№. 4.-S. 58.
11. Yarmukhamedova N. A. et al. Samarkand viloyati khududida bolalar va ũsmirlarda parotitli infektsiya kechishining klinik-epidemiologik xususiyatlari // *Problemy biologii i meditsiny.* - 2018.-№. 2.-S. 152-154.
12. Rabbimova N. T., Matyakubova F. E., Tirkashev O. S. Chastota videleniya streptococcus pneumoniaye priostrix respiratornix infeksiyax dixatelnix putey // *volgamedscience.* - 2021.-S. 589-591.
13. Yarmuxamedova N. i dr. Kliniko-epidemiologicheskaya xarakteristika parotitnoy infektsii u detey i podrostkov po samarkandskoy oblasti // *Jurnal problemi biologii i meditsini.* - 2018.-№. 1 (99). - S. 150-153.
14. Yarmuxamedova N. i dr. Kliniko epidemiologicheskoye techeniye koklyusha u detey v Samarkandskoy oblasti // *Jurnal problemi biologii i meditsini.* - 2016.-№. 3 (89). - S. 124-124.
15. Tirkashev O.S. et al. Measles at the present stage // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal.* - 2022.-T. 3.-№. 5.-S. 177-185.
16. Saidovich T.O., Sultanovna M.G., Abdulvaxidovich J.S. Study of the effect of memory disease on immunoprophylaxis on disease epidemiological characteristics // *Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences.* - 2021.-T. 2.-№. 3.-S. 1-4.
17. Samibayeva U. i dr. Samarqand viloyatida o'smirlar orasida zamonaviy bosqichda brutsellyoz kasalligi epidemiologik aspektlarini tahlil etish // *Jurnal vestnik vracha.*-2017.-T. 1.-№. 2.-S. 37-44.
18. Yarmuxamedova N. A. i dr. Funktsionalniye izmeneniya so storoni serdechno-sosudistoy sistemi u bolnix s xronicheskimi formami brutselleza // *Dostijeniya nauki i obrazovaniya.* - 2020.-№. 4 (58). - S. 56-60.
19. Saidov H.Sh., Tirkashev O.S. Study of the effect of measles vaccination on the epidemic process of the disease// *Web of Scientist: International Scientific Research Journal.* Vol 4 No.1 (2023): vos. C.560-565.
20. O'rolov J.B., Tirkashev O. S. Characteristics of the clinical course of salmonellosis disease in children of early age// *Web of Scientist: International Scientific Research Journal.* Vol 4 No.1 (2023): vos. C.573-577.
21. Ne'matov H.A., Tirkashev O. S. Specific clinical and epidemiological features of scarlet fever// *Web of Scientist: International Scientific Research Journal.* Vol 4 No.1 (2023): vos. C.578-584.
22. Mustayeva G. B. Osobennosti techeniya klebsiyelleznoy infektsii po dannim Samarkandskoy oblastnoy klinicheskoy bolnitsi // *Vestnik nauki i obrazovaniya.* - 2020.-№. 18-2 (96). - S. 81-85.

23. Yarmuxammedova N.A. soavtorami. Kliniko-epidemiologicheskaya xarakteristika shigelleza u vzroslix na sovremennom etape. Sentralnoaziatskiy meditsinskiy i yestestvennonauchniy jurnal. 2021/6/28, Tom 2. Nomer 3. Str.311-318.

24. Mustayeva G.B., Oripova P.O. Samarqand viloyati aholisi orasida O'II kasalliklari etiologik strukturasi va epidemiologik aspektlarini taxlil qilish. Jurnal kardiorespiratornix исследований. №SI-1.1. 2022g. Str414-418.

25. Rustamova Sh.A., Mustayeva G.B. Epidemiologicheskaya xarakteristika ostrix kishhechnix infeksiy v posledniye godi v Samarkandskoy oblasti. Tadkikot.uz.2020/6. №16.str. 142-145.

26. Krasnaya M.Ye., Mustayeva G.B. Sovremenniye epidemiologicheskiye aspekti ostrix kishhechnix infeksiy v Samarkandskoy oblasti. Jurnal Doktor axborotnomasi .2011g.№1. Str122-124.

27. Mustayeva G. B. Saidov H.Sh. About the so-called prolonged or persistent diarrhea in children. Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 4, April., 2023. Str.461-466.

28. Mustayeva G.B., Tirkashev O.S., Uralov J.B. Erta yoshdagi bolalarda gemokolit sindromi bilan kechuvchi o'tkir ichak infeksiyalarini o'ziga xos klinik-laborator kechish xususiyatlari. Science end education. ISSN: 2182-0842. Volume 5, Issue 2, February., 2024 Str.125-129.